

Aholi murojaatlari bo‘yicha

Avvalo aholi murojaatlari bilan ishslash masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, biz deputatlar, faollar, mahalla mas’ullari bilan birgalikda tuman miqyosida **318 ta** umumiylar masalalar ro‘yxatini shakllantirib olganmiz. Shundan 96 tasi elektr, 61 ta obodonlashtirish, 49 ta ichimlik suvi, 58 ta yo‘l ta’miri, 8 ta gaz ta’minoti, 21 ta ta’lim, 10 ta tibbiyat, 8 ta qurilish, 3 ta aloqa bilan bog‘liq masalalarni tashkil etadi. Yil boshidan bugunacha ularning 99 tasi o‘zining ijobiy yechimini topgan.

Misol uchun, ko‘pchilik yurtdoshlarimiz kutgan **Bulung‘ur-Kildon-Xo‘jamazgil** avtomobil yo‘lining **18-30 km.** qismini ta’mirlash uchun yaqin **1 oy ichida** boshlanadi. Hozirda tenderga qo‘yilgan bo‘lib, 11-kuni tender g‘olibi aniqlanadi.

O‘tgan 6 oy mobaynida hokimlik tomonidan **1235 ta** murojaat qabul qilingan. Shundan, **1009 tasi** (81.7%) ijobiy qanoatlantirilib, **109 tasiga** huquqiy tushuntirish berilgan. Jumladan Xalq qabulxonasida **25 marotaba** hamda mahallalarda **41 marotaba** sayyor qabullar hamda **26 marotaba** yoshlar bilan uchrashuvlar tashkil etildi. Ushbu qabullarda mahalladagi fuqarolar hamda yoshlar tomonidan tomonidan jami **367 ta** murojaatlar kelib tushgan. Kelib tushgan murojaatlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, asosan elektr energiyasi ta’minoti, ichimlik suvi ta’minoti, ichki va asosiy yo‘llar ta’miri bilan bog‘liq masalalar kelib tushgan. Ushbu murojaatlarning **175 tasi** ijobiy yechim topgan bo‘lsa **142 tasiga** xuquqiy tushunchalar berish orqali hal etilgan, **14 tasi** shu joyning o‘zida tushuntirishlar berilgan, **3 ta** murojaatlar rad etilgan, **33 ta** murojaatlarni ijobiy hal etish uchun mablag‘ va vaqt talab etilganligi sababli bajarilish jarayonida bo‘lib, ijrosi nazoratga olingan.

Yirik loyihalar va bajarilgan ishlar

Kezi kelganda yil boshidan bugunga qadar aholining turmush sharoitini yaxshilash maqsadida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga ega **yirik loyihalardan** ayrimlariga to‘xtolib o‘tadigan bo‘lsam:

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentiring 2025 yil 1 apreldagi **PQ-132-sonli** qarori bilan Samarqand viloyatida birgina Bulung‘ur tumani tanlab olinib, jadal kompleks rivojlantirish dasturi ishlab chiqildi.

Bunda, tumanni ijtimoiy iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha **7 ta** buyurtmachi tashkilotlarga jami **14 ta** (*28 ta lot*) loyihalar uchun zarur infratuzilma yaratish, obodonlashtirish va ko‘kalamzorlashtirish hamda boshqa tadbirlarni amalga oshirish uchun Respublika byudjetidan **70,0 mlrd.so‘m** mablag‘ ajratilgan.

Bugungi kunda **24 ta** ob’ektda loyiha tashkilotlari aniqlanib, loyiha-smeta hujjatlari ishlab chiqilgan. **13 ta** ob’ektda davlat ekspertiza xulosalari olingan, **10 tasi** pudratchi tashkilotni aniqlash bo‘yicha e’longa berilib, shundan **7 tasida** pudratchi tashkilot aniqlangan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 24 dekabrdagi **PQ-454-son qarori** asosida joriy yilda jami **76 mlrd. 720 mln. so‘m** mablag‘ evaziga quyidagi ishlar bajarilishi rejalashtirilgan:

- Yangi O‘zbekiston massivi «Olmazor» MFY hududida 330 o‘rinli yangi umumta’lim maktabini va sport zali (12x24) qurish;
- «Elobod» MFYdagi 38-son, «Esonturdi» MFYdagi 58-son, «Nurli yo‘l» MFYdagi 4-son maktablarni rekonstruksiya qilish;
- «Mehrjon» MFYdagi 9-son, «Mingtepa» MFYdagi 17-son DMTTlarni rekonstruksiya qilish;
- Bulung‘ur kanalining «Oqboshi» gidrotexnik inshootini rekonstruksiya qilish.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 29 noyabrdagi **PQ-407-son qarori** bilan tasdiqlangan tuman (shahar)larni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar dasturiga ko‘ra, **29 mlrd. so‘m** mablag‘ evaziga

- 4R47 “Bulung‘ur sh. - Urgut sh. - M39” avtomobil yo‘lining 3-18 km qismini ta’mirlash (15 km.);
- “Fozil Yo‘ldosh” MFY ichki yo‘llarini joriy ta’mirlash (3,8 km.);
- “Cho‘yantep” MFYdagi Mustaqillik, Qator tut, Navro‘z, O‘rikzor, Taraqqiyot va Soy bo‘yi ko‘chalarini joriy ta’mirlash (6 km.);
- “Chorbog” MFY ichki ko‘chalarini joriy ta’mirlash (5 km.);
- “G‘o‘bdin” MFY Qarovultepa qishlog‘ida 4 km. suv tarmog‘ini tortish va 1 dona suv inshotini qurish;
- Bulung‘ur tumanidagi 54-maktabni 320 quvatli mukammal ta’mirlash;
- Bulung‘ur tumani “Niyozmat” MFY Niyozmat qishlog‘ida 120 o‘rinli yangi maktabgacha ta’lim tashkilotini qurish;
- Bulung‘ur tumani “Mingchinor” MFYdagi 140 o‘rinli 23-son maktabgacha ta’lim tashkilotini rekonstruksiya va mukammal ta’mirlash;
- Bulung‘ur tumani “Mingtepa” MFYdagi 120 o‘rinli 17-son maktabgacha ta’lim tashkilotini mukammal ta’mirlash ishlari belgilangan.

“Tashabbusli budjet” Dasturi doirasida **18 mlrd. so‘m** mablag‘ evaziga:

Kaptarxona, Xo‘jabachcha, Qo‘ng‘iroq, Suluvg‘or‘on, Isori O‘roqli mahallalarida ichki ko‘chalar asfatlashtirilmoqda, Erganakli mahallasida **3 km** piyodalar yo‘lakchasi qurilmoqda;

54-sonli umumta’lim maktabi moddiy texnik bazasini rivojlantirish, 11- hamda 39-maktablarga qo‘srimcha bino qurish, 2-umumiyl o‘rta ta’lim maktabiga zamonaviy sport zal qurish ishlari bajariladi;

Bulung‘ur tuman tibbiyot birlashmasida tuman tez tibbiy yordam bo‘limiga yangi bino quriladi.

Bundan tashqari, alohida dastur asosida **18-maktabga** 600 o‘rinli qo‘sishimcha bino qurilmoqda.

Ijtimoiy byurma asosida Oliy Majlis Qonunchilik Palatasining fondi mablag‘lari hisobidan **2 mlrd. 400 mln. so‘m** mablag‘ evaziga "Xumo" istiroxat bog‘i hududidan Axborot-kutubxona markazi uchun yangi bino qurilib, foydalanishga topshirildi.

"**Kambag‘allikdan farovonlik sari**" dasturi (PQ-330) doirasida **qariyb 16 mlrd. so‘m** mablag‘ evaziga:

- 2 ta sug‘orish qudug‘i qurish;
- 23 km. sug‘orish ariqlarini betonlashtirish;
- 6 km. ariqlarni lotoklashtirish;
- 5 km asfaltlashtirish;
- 5,5 km piyodalar yo‘lagi qurish;
- 9 ta transformator o‘rnatish;
- 16,8 km. tarmoq tortish ishlari bajariladi.

Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 7-maydag‘i “Energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan loyihalarni jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi **300-sonli** qaroriga ko‘ra, qariyb **22 mlrd. so‘m** malag‘ evaziga:

1-maktab hamda 2-sonli DMTTni, ko‘p tarmoqli markaziy poliklinika binosini mukammal ta’mirlash hamda yoshlar IT-Markazini qurish belgilangan.

“**Islom taraqqiyot banki**” ishtirokida (**PQ-141**) “Qishloq joylarni kompleks rivojlantirish” (2-bosqich) loyihasi doirasida **74,5 mlrd. so‘m** mablag‘ evaziga Olmazor, Fozil Yo‘ldosh, Yangiariq hamda Yangiobod mahallalarida:

- **36,9 km** yo‘llarni asfaltlashtirish, 2,2 km. piyodalar yo‘lakchasi qurish;
- **16 ta** TP o‘rnatish, **66,6 km** tarmoq tortish;
- **9 ta** yangi suv minorasi qurish, **7 tasini** ta’mirlash, **60,6 km.** tarmoq tortish;
- **1 ta** tibbiyot muassasi, **3 ta** maktab, **1 ta** DMTTda qurilish-ta’mirlash ishlari bajariladi.

1. Elektr ta’minotida:

Tuman aholisi va sanoat korxonalarida uzlusiz elektr ta’minoti bo‘lishi uchun **Bulung‘ur** podstansiyasidan tumandagi **G‘o‘bdin** massiviga **110 kVli** ikki zanjirli tarmoq tortish, **1 dona** podstansiya qurish va **2 dona** 25 MVA.dan **jami 50 MVA** kuchlanishdagi transformatori o‘rnatish (**65,0 mlrd so‘m**) maqsadida ishlar boshlandi.

41 dona transformator punkitlari, **80 km.** havo tarmog‘i mukammal ta’mirlandi, **216 ta** trasformatorlar hamda **290 km** havo tarmog‘i joriy tamirlandi.

PQ-330 son karorga O‘roqli, Bo‘dana mahallalarida **4 ta** 160 kVtli TPlar o‘rnatildi, **16 km** SIP kabellar tortilib, **310 dona** temir beton ustunlar o‘rnatildi.

72 dona temir beton ustun, 330 ta izolyator, 5,7 km. SIP kabel, 140 dona travers, 19 ta oprniy izolyator, 5 ta ajratgich, 110 ta saqlagich, 17 ta rubilnik, 6 ta avtomat, 20 kg. kraska kabi zaruriy materiallar murojaatlarga ko‘ra ajratilib, sarflandi.

Axoli istemolchilarini va maxalla xomiylari tomonidan **4 dona** yangi transformator **9 km** 10/0.4 kv xavo tarmoklari yangilandi.

3. Suv ta’midotida:

Yangiobod, Nurli yo‘l mahallalarida 370 km tarmoq tortildi.

Sayltega, Bog‘bon mahallalarida mavjud suv inshootlari, Ulug‘bek, Olmazor mahallalarida suv minoralari ta’mirlandi.

Esonturldi, Nurli yo‘l mahallalaridagi suv inshootlariga energotejamkor suv nasoslari o‘rnatildi.

G‘o‘bdin, Kattaqishloq mahallalarida suv inshootining yer osti nasoslari ta’milandi hamda 50 metr yer osti suv ko‘tarib berish trubasi yangisiga almashtirildi.

Amir Temur mahallasida joylashgan **KSZda** 1 dona suv inshooti qurish ishlari amalga oshirildi.

150 dan ortiq xonadon bilan ichimlik suvi tarmog‘iga ulanish bo‘yicha shartnomalar tuzildi.

Shuningdek, Bulung‘ur tumanida 2026-2028-yillarda **21 ta** yangi suv inshoot qurish, **27 ta** mavjud suv inshootlarni rekonstruksiya qilish hamda **166.5 km**. ichimlik suv tarmoqlarini tortish bo‘yicha takliflar berilgan.

Xususan, "**Islom taraqqiyot banki**" guruhi ishtirokida tumanning Olmazor, Yangiariq, Yangiobod, Fozil Yo‘ldosh mahallalarida **9 ta** suv inshoot qurish, **8 ta** mavjud suv inshootini rekonstruksiya qilish xamda **68,8 km**. ichimlik suv tarmoqlarini tortish bo‘yicha takliflar berilgan bo‘lib, xozirda loyiha hujjatlarini tayyorlash ishlari olib borilmoqda.

Yo‘l ta’miri bo‘yicha:

11 mlrd. 200 mln. so‘m so‘m mablag‘ evaziga 34 ta mahalla hududidan o‘tuvchi umumfoydalanishdagi **87 km** yo‘llar joriy ta’mirlandi.

Tumanda jami **57 km**. ichki tuproq ko‘chalari shag‘allashtirildi. **5,7 km**. piyodalar yo‘laklari qurildi. **162 ta** zamонави (quyosh panelli) tungi yoritish chiroqlari o‘rnatildi.

“Tashabbusli budget” dasturiga ko‘ra Xo‘jamazgil, Xo‘jabachcha, Suluvqo‘g‘on, Qo‘ng‘iroq, Kaptarxona mahallalarida jami **16,2 km**. ichki yo‘llar asfaltlashtirilmoqda.

Davlatimiz rahbarining 2024 yil 29 noyabrda qabul qilgan “Samarqand viloyatida investitsiya va tadbirkorlik muhitini yanada rivojlantirish hamda aholi turmush darajasini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan tasdiqlangan **“Samarqand viloyatining tuman (shahar)larini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-**

tadbirlar dasturi”ga ko‘ra, “Bulung‘ur – Samarqand shahri - Juma – Kattaqo‘rg‘on shahri” yo‘nalishida **elektr poezdi** qatnovini yo‘lga qo‘yish belgilangan. Buning uchun zamonaviy poezd vagonlari olib kelish, oraliq to‘xtash temiryo‘l bekatlari infratuzilmasini yaxshilash rejalashtirilgan.